

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.A. Abduvaliyeva

Markaziy Osiyo o'rta paleolit manzilgohlarining fanda o'rganilishi tarixi (I qism)	654
A.A. Nishonov	
Farg'ona vodiyisida Sevinchxojaxon va Sulton Saidxon kurashi	664
A.A. Aloxunov, B.B. Jo'raqulov	
Tunkat tarixi yozma va arxeologik manbalarda	673
A.A. Nishonov	
Sevinchxojaxon xonadoni tarixi manbalarda yoritilishi	677
R.X. Akbarov	
Turkiston yevropalik aholi vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki	681
R.X. Akbarov	
Turkiston mahalliy vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki	685
S.V. Yo'ldoshev	
Xalq o'yinlarining tarixiy ildizlari va lokal xususiyatlari	691
A.M. Maximov	
XX asrning 20-30 yillarda Buxoro amirligi muhohijrlari taqdiri	695
A.M. Maximov	
Usmon Xo'ja avlodlari qayerda?	698

ADABIYOTSHUNOSLIK**K.A. Topvoldiyev**

Use of antonyms in Russian fiction and in religious self-consciousness	701
--	-----

H.K. Sabirov

Средняя Азия в путевых заметках Ф. С. Ефремова	706
--	-----

A.P. Kosimov

Конвергенции наследия Т.Мурода с духовным богатством национальной и мировой культуры	710
--	-----

H.A. Jo'rayev, Y.I. Nishanov

Yusuf qissasi syujetining sayyorlik omillari	715
--	-----

H.M. Karimova

Отражение времени: концепция исторического романа в литературе	718
--	-----

Y.I. Nishanov

Umuminsoniy g'oyalar ifodasida ijodiy ta'sirning o'rni	722
--	-----

I.N. Doronina

«Отражение современных социальных реалий в современной Русской литературе»	726
--	-----

Z.F. Gizduulin

Мотив пандемии в художественной постапокалиптической фантастике	729
---	-----

X. Sharifiddinov

Zamon qiyofalangan tarixiy roman	732
--	-----

E.Ibragimova, N.Sharafutdinova

Teonimik tushuncha ifodalovchi mifologik obrazlar	735
---	-----

G.V. Abdullayeva

Lof she'rlar poetikasi va badiiy-estetik funksiyasi	738
---	-----

S.A. Xodjayev, Ch.I. Turg'unova

O'zbek va jahon folklori namunalarida uchlilik va beshlik timsollarining poetik kombinatsiyalari	745
--	-----

X.A. Abdulxamidova, D.U. Jamoliddinova

Isajon Sulton hikoyalarida peyzajning badiiy ifodalanishi	749
---	-----

X.J. Jamolova

Zullisonaynlik an'anasi va ijodiy ta'sir masalalari	752
---	-----

M.M. Xamidov

O'zbek tarixiy romanlarida qahramon talqini masalasiga doir	755
---	-----

R.M. Umurzakov

Bola obrazining nazariy muammolari	761
--	-----

J.B. Sayidolimov

"Vasiyatnoma" – kichik agiografik asar	765
--	-----



UO'K: 82-3:82.0:821.512.133

ISAJON SULTON HIKOYALARIDA PEYZAJNING BADIY IFODALANISHI

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ПЕЙЗАЖА В РАССКАЗАХ ИСАДЖОНА СУЛТАНА

ARTISTIC EXPRESSION OF LANDSCAPE IN THE STORIES OF ISAJAN SULTAN

Abdulxamidova Xikmatoy Axrorjonovna¹ ¹Farg'ona davlat universiteti, adabiyotshunoslik kafedrasi kata o'qituvchisi, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhDJamoliddinova Durdona Umidjonovna²²Farg'ona davlat universiteti, filologiya fakulteti talaba

Annotation

Maqolada Isajon Sulton hikoyalari haqida fikr yuntilgan. Hikoyalarda tabiat tasviri, uning badiiy talqini, vazifasi tahliliga tortilgan. Hikoya kompozitsion sathida peyzajning o'mi, obrazlar ichki dunyosini yoritishdagi poetik funksiyalari misollar orqali asoslangan.

Annotation

В статье рассматриваются рассказы Исаджана Султана. В его рассказах анализируется образ природы, его художественная интерпретация, функция. На примерах обоснована роль пейзажа на композиционном уровне рассказа, его поэтические функции в освещении внутреннего мира образов.

Abstract

The article reflects on the stories of Isajan Sultan. In his stories, the image of nature, its artistic interpretation, the task of which was drawn to analysis. The role of landscape in the compositional level of the story, its poetic functions in the illumination of the inner world of images are based on examples.

Kalit so'zlar: peyzaj, detal, asar kompozitsiyasi, qahramon xarakteri, ramzly obraz, syujet chizig'i, muallif uslubl

Ключевые слова: пейзаж, деталь, композиция произведения, персонаж, символический образ, сюжетная линия, авторский стиль.

Key words: landscape, detail, composition of the work, character of the hero, symbolic image, plot line, author's style

KIRISH

Tabiat tasviri ijodkor badiiy mahoratini namoyon etuvchi muhim omillardan sanaladi. Chunki tabiat manzarasi tasvirida ijodkorning so'z boyligi, uni qo'llash darajasi, qalamga olingan makonga munosabati yuzaga chiqadi. Adib atrof-muhitning go'zalligini xuddi musavvirdek qalamga oladi. Undagi har bir detal muayyan maqsadga qaratiladi. Kitobxon uni o'qir ekan, vaziyatni aniq-tiniq ko'z oldiga keltira oladi. Buni boshqa tilga o'giruvchi tarjimon ham muallif uslubini to'laqonli qayta yaratish, parchani asliyat ohangini saqlangan holda o'girishga harakat qiladi. Turli sifatlash, o'xshatish va boshqa turli badiiy san 'atlarni qo'llashga urinadi. Haqiqatan ham badiiy asarlarda tabiat obraqi peyzaj tez-tez uchrab turadi. Avvalo, u asar kompozitsiyasida, albatta, aniq g'oyaviy maqsadni ifodalaydi: a) qahramon harakat qiladigan tabiiy muhitni ko'rsatadi; b) qahramon xarakterining u yoki bu qirralarini ochishga xizmat qiladi; c) asarda tasvirlanayotgan voqeahodisaga tarixiy-konkret tabiiy tus beradi va yokazo. [1, 33]

"Tabiat hodisalari, manzaralariga Isajon ramziy ma'nno yuklaydi. Tabiat tasviri uning asarlarida shunchaki qahramon ruhiyatini aks ettiradigan qo'shimcha bir vosita emas, balki maqsaddir. U tabiat hodisalari tilida bu olamning inson xayollari yetadigan joyigacha bo'lgan hikmatini aks ettirishga harakat qiladi. To'g'riroq'i, yozuvchi tabiat hodisalarini shunday ma'noli va ta'sir usulda tasvirlay oladiki, biz bu manzaralarni o'qib butun borliqni boshqarib turgan Ollohnning

irodasini rosmana his etamiz", - deya e'tirof etadi adabiy tanqidchi Rahimjon Rahmat o'z izlanishlarida [2, 262, 263] Biz tahlilga tortmoqchi bo'lgan Isajon Sulton hikoyalarida ham peyzaj orqali voqelikka munosabatini ifodalaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILII VA METODLAR

"Qismat" hikoyasidagi yozuvchi yaratgan oddiy qishloq tabiat tasviri, atrof-muhitning kelgusi muhitga moslashtirilganligi o'zbek adabiy tilida mahorat bilan aks ettiriladi:

"Ustunlar vaqt o'tishi bilan to'q jigarrang-qoramdir tus olib, uzunasiga yorilgan. Ba'zi yoriqlarida mayda chumolilar o'rmalashadi. Kattaroq bir yoriqqa sariq arilar in qurban. Ular ko'p emas, sakkizta yoki to'qqizta. Ertalab hali havoda nam ko'p mahali g'uj bo'lib turadilar, qanotlari qurigach, uchib ketadilar. Qanoti nam arining g'o'ng 'illashi bo'g'iq va past bo'ladi. Qanoti quruq ari zirillagan ovoz chiqarib uchadi. Bularning chaqishi erta bahorda kuchli bo'lmaydi. Yoz bo'yи kuch to'playdi." [3, 1]

Yozuvchi tomonidan ta'riflangan mazkur tabiat tasviri orqali muallifning so'z tanlashda mohir ekanligini, har bir detal muayyan maqsadga qaratilganligini biliшимиз mumkin. Hikoyaning "hovli sho'rashgan, oqarib qolgan" jumlasida ham yozuvchi enaning ko'zi ojizligiga ishora qiladi. Haqiqatdan ham Isajon Sulton hikoyalaridagi tabiat tasviri orqali biz butun borliqni anglaymiz, yozuvchi hech kim e'tibor bermagan, hayoliga ham kelmagan mitti bolsada olamning go'zalligiga o zining hissasini qo'shib turgan tabiat tasvirlarini shunday mohirona obrazli qilib tasvirlaydi.

Izzat Sulton tabiat tasviri haqida quyidagi fikrlarni qayd etadi: "Badiiy asarda tabiat hodisalari va ko'rinishlari syujetning rivojini tezlatuvchi yoki sekinlatuvchi faktor sifatida ham tasvirlanishi mumkin. Ammo, tabiat manzaralaridan qahramonning ruhiy holatini ochib berish uchun foydalanish badiiy asarda eng ko'p uchraydigan hodisadir". [4, 188, 189] Olimning so'zlaridan ko'rinih turibdiki, yozuvchi tasvirlamoqchi bo'lgan qahramonining ruhiy holatiga tabiat tasviri orqali oyna tutadi. Bir so'z bilan aytganda, personaj ruhiy dunyosini moddiy dunyoga ko'chiradi. Shu o'rinda, Isajon Sultonning "Qismat daraxti" hikoyasidagi tabiat tasviri o'ziga xos tarzda ko'zga tashlanadi. E'tibor qiladigan bo'lsak, bu hikoyalarga nom berishda ham yaqqol ko'rindi. Bundan tashqari, hikoya boshidan oxirigacha inson umri yil fasllari orqali ko'rsatib beriladi. Asar boshida tasvir yoz fasli va yoshlik yillardini tasvirlagan bo'lsa, asar yakuniga kelib kuz fasli bilan hamo-hang tarzda qarilik davri tasvirlanadi:

"Bu safar eshikdag'i darbonning ham sochlariqa oq oralagan edi. Bog'ichi kuz edi, erta kuz. Kuzning bunaqa go'zalligini hech qachon ko'rmanman. Darvoza qarshisidagi daraxtdan oltin yaproqlar mungli bir jarang bilan bandidan uzilib, yerga sollana-sollana qo'nar edilar." [5, 8]

Huddi shundan holat yozuvchining yana bir "Oydinbuloq" asarida ham namoyon bo'ladi. Ya'ni, asar boshidan so'nggigacha Oydinbuloqda aylanayotgan yaproq hamroh bo'ladi." Yozuvchining yaproqni ramziy obraz qilib olinishida ham o'zgacha qarash mavjudligi sezilib turibdi.

"Qismat" hikoyasida peysaj orqali qahramon xarakteristikasiga ham baho berib o'tgan:

"Bir qamishzor emish. Och-sariq, bo'yulari uzun-uzun, poyalari quruq... Qamishzor nihoyasiz, shovullaydi." [6, 10]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Hikoyaning qahramonlaridan biri bo'lgan ota oila-a'zolariga zug'm o'tkazishdan nariga o'tmaydigan, doim baqir-chaqir qiladigan obraz bo'lib, o'zi ishlaydigan qamishzor ham qahramonga parallel tarzda tasvirlanadi. Isajon Sulton asarlarida shamol motiviga keng o'r'in berilgan. Yel, shabada, nasim, shamol, bo'ron, to'fon kabi darajama-daraja farq qiluvchi tabiat hodisalari tasviridan asar kompozitsiyasida unumli foydalaniadi. Va bu qahramon ruhiyati, voqelar rivojinining tadrijiy o'zgarib borishini ko'rsatadi. Birgina yozuvchining "Shamolli kecha" hikoyasida ham shamol asarda asosiy detal vazifasini bajaradi. Hikoyadagi shamolning aka-singil hayotiga ta'siri, uning taqdiri shamoli ekanligi ko'rsatib berilgan. Bunda tashqari, shamol bu yerda ayrılıq, qahramonning armonga aylangan orzulari ramzini ifoda etmoqda. Isajon Sulton asarlarida keltirilgan peyzaj tasviri ramziylik asosida qurilganligi bilan A.Qahhor ijodi bilan mushtaraklik kasb etadi. Ba'zan hikoyalar to'lig'icha peyzajdan tashkil topadi. "Oydinbuloq" hikoyasida esa shamol umrning o'tkinchiliginini eslatib turuvchi, o'tgan fursatlarni sarhisob qiluvchi odil hakamdir.

Xulosa qilib aytganda, Isajon Sulton E.Xeminguey, Sh.Xolmirzayev, A.Qahhor kabi tabiat mavzusida takrorlanmas asarlar yaratadi. Uning hikoyalarida oddiy qishloq tabiatining maftunkorligi, go'zalligi tasvirlashga emas, tabiat tasviri orqali inson ichki olamini ham yoritishga e'tibor qaratgan.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Adib hikoyalaridagi tabiat tasviri namunlari ba'zi o'rnlarda lirik mubolag'alardan holi bo'lmasa-da, hikoyalarini ochib beruvchi, ma'noviy syujet chizig'ini shakillantiruvchi hamda ularni xulosalovchi asosiy unsur bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. To'xta Boboyev Adabiyotshunoslik asoslari. - "O'zbekiston" Toshkent.2002.
2. Rahimjon Rahmat Munojotdan Boqiy darbadargacha. - O'zbekiston Toshkent. 2011.
3. Isajon Sulton Qismat hikoyasi
4. Izzat Sulton Adabiyot nazariyasi. - O'qituvchi Toshkent. 1996.
5. Isajon Sulton. Qismat daraxti